

**SHOHRUX MIRZO VA XITOY IMPERATORI O'RTASIDA DIPLOMATIK  
ALOQALARNING BOSHLANISHI VA RIVOJLANISHI**

**Rustamov Jasur Kaxramonovich**

Oriental universiteti 2-kurs magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15103966>

*Annotatsiya. Mazkur maqolada Shohrux Mirzo va Xitoy imperatori o'rtasida diplomatik aloqalarining boshlanishi va rivojlanishi manba va adabiyotlat tahlili asosida ochib berilgan.*

*Shuningdek Amir Temur tarixi yoritilgan musulmon tarixiy manbalaridan birortasida Xitoyga jo'natilgan hech bir rasmiy elchilik haqidagi ma'lumotlar tilga olinmagan. Ammo Shohrux Mirzo davrida Xitoyga yuborilgan G'iyosiddin Naqqoshning sayohat kundaligi qimmatli ma'lumotlar borligi bilan ajralib turadi.*

**Kalit so'zlar:** Amir Temur, Temuriylar davlati, Shohrux Mirzo Min sulolasi, Zafarnoma, Mulla Hafiz, Xitoy imperatori, elchilar, Uilyam Chambers, Abdurazzaq Samarcandiy.

**THE BEGINNING AND DEVELOPMENT OF DIPLOMATIC RELATIONS BETWEEN  
SHAHRUKH MIRZO AND THE CHINESE EMPEROR**

*Abstract. This article reveals the beginning and development of diplomatic relations between Shahrukh Mirza and the Chinese emperor based on the analysis of sources and literature. Also, none of the Muslim historical sources covering the history of Amir Temur mentions any information about any official embassy sent to China. However, the travel diary of Ghiyosiddin Naqqash, who was sent to China during the reign of Shahrukh Mirza, is notable for containing valuable information.*

**Key words:** Amir Temur, Timurid state, Shahrukh Mirza, Ming dynasty, Zafarnama, Mulla Hafiz, Chinese emperor, ambassadors, William Chambers, Abdurazzaq Samarkandi.

**НАЧАЛО И РАЗВИТИЕ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ МЕЖДУ  
ШАХРУХОМ МИРЗОЙ И ИМПЕРАТОРОМ КИТАЯ**

*Аннотация. В данной статье на основе анализа источников и литературы раскрывается начало и развитие дипломатических отношений между Шахрукхом Мирзой и китайским императором. Также ни в одном из мусульманских исторических источников, освещдающих историю Амира Темура, нет сведений о каком-либо официальном посольстве, отправленном в Китай. Но путевой дневник Гиясиддина Наккоша, отправленного в Китай во времена Шахруха Мирзы, отличается тем, что содержит ценную информацию.*

**Ключевые слова:** Амир Темур, государство Тимуридов, династия Шахруха Мирзы Мина, Зафарнама, Мулла Хафиз, китайский император, послы, Уильям Чемберс, Абдураззак Самарканди.

XIV asrning so‘nggi choragi hamda XV asr boshlarida Xitoyning Min imperiyasi va Markaziy Osiyodagi Temuriylar davlati o‘rtasida faol diplomatik aloqalar yo‘lga qo‘yilgan. Lekin, ushbu mavzu yuzasidan tadqiqot olib borilganda tarix fani oldida paydo bo‘ladigan ba’zi noaniqliklar va chigalliklar mavjud. Bu noaniqliklar yuzaga kelishining turlicha sabablari bo‘lib, ushbu omillar ba’zi hollarda ilmiy yondashuvlarning chalkashib, tarixiy haqiqat chegaralaridan og‘ishuviga sabab bo‘lishi ham mumkin.

Eng avvalo shuni ta’kidlash joizki, Amir Temur va Xitoy hukmdorlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘z davrida to‘laligicha batafsil yoritilmagan.

Manbalardagi uzuq-yuluq ma’lumotlar esa qat’iy xulosalar chiqarish uchun yetarli emas.

Shu bilan birga ushbu ma’lumotlarning ishonchlilik darajasi ham yuqori pog‘onalarda turmaydi. Har ikki tomon (xitoy va musulmon dunyosi) manbalarida ham saroy tarixchiligi xususiyatlari yuqori o‘rinni egallashini hisobga olib, ushbu mavzu yuzasidan manbalar bilan ishlaganda, ularga tanqidiy nuqtayi nazar bilan qarash lozimligini unutmaslik kerak. O‘z davrining siyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda, Xitoy yilnomalarida ham, musulmon muarixlarining asarlarida ham hukmron sulolani ulug‘lash va raqib tomonning kamchiliklarini bo‘rttirib ko‘rsatish holatlari uchrab turadi. Lekin, turli tarixiy manba va adabiyotlarni xolisona ruhda va adolat tamoyillari asosida o‘rganish jarayonida tarixiy haqiqatni birmuncha yoritish mumkin.

Amir Temur bilan Xitoy imperatorlari o‘rtasida elchilik aloqalarining qachon boshlanganligi xususidagi fikrlar mavjud tarixiy adabiyotlarda turlichadir. Masalan, ba’zi olimlar Min imperiyasi XIV asrning 70 yillardayoq Amir Temur huzuriga o‘z elchilarini yuborganligi, bundan g‘arbiy mamlakatlarga Xitoya yangi sulola hukmronligining boshlanganligi haqida ma’lum qilish maqsadi ko‘zlanganligi, biroq, Amir Temurdan unga javob elchiligi jo‘natilmaganligi haqida fikrlarni ta’kidlaydilar<sup>1</sup>.

Shuningdek, fransuz sharqshunosi R.Grusse fikricha, dastlabki elchilik 1385 yilda Xitoy imperatori Xun’u (1368-1398 yy) tomonidan jo‘natilgan bo‘lib, Xami, Turfon, Ilibaliqqa kelgan hamda chig‘atoj (aniqrog‘i, jeta) va dug‘lat beklari haqida ma’lumot to‘plib, keyin Samarqandga

<sup>1</sup> Rajkai Z.T. The Timurid empire and the Ming China: Theories and approaches concerning the relations of the two empires (Doktori Disszertáció). – Budapest, 2007. – P.50.

yo‘l olgan. Fu Ngan (bu yerda Xitoy elchisi Fu An nazarda tutilgan bo‘lishi mumkin) boshchiligidagi bu elchilik Samarqandda ushlab qolinib, uzoq muzokaralardan so‘ng ortiga qaytishiga ruxsat berilgan<sup>2</sup>.

Bu elchilik haqida manbalar va boshqa tarixiy adabiyotlarda ma’lumotga duch kelmadi.

Ammo, o‘zaro birinchi elchilikning Xitoy tomonidan yuborilganligiga ishonishga asos bor.

Endigina tashkil topgan Min imperiyasining shimoldagi raqiblari – mo‘g‘ul va oyratlarga qarshi ittifoqchilar izlash zaruriyati va g‘arbiy mamlakatlar (Sharqiy Chig‘atoy mo‘g‘ullari, Amir Temur davlati va boshqalar) haqida ma’lumotlar to‘plash masalasi bunga sabab bo‘la oladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, uch marta Samarqandga, uch marta Beshbaliqqa jo‘natilgan Fu An elchiligi birinchi marotaba Amir Temur saroyiga 1395 yilda kelganligi boshqa tarixiy adabiyotlarda ko‘rsatib o‘tilgan. Grusse ma’lumotlarida esa ba’zida tarixiy sanalardagi chalkashlik kuzatiladi.

Amir Temur tomonidan yuborilgan birinchi elchilik, Min sulolasi tarixiga oid yilnomalarga ko‘ra, 1387 yil bahorida Xitoyga yetib borgan. Manbada Manla Xafeyszsy (Mulla Hofiz) boshchiligidagi bu elchilik Xitoy imperatoriga 15 ot va 2 tuyadan iborat tuhfa taqdim qilganligi va Min saroyida ularning sharafiga ziyofat uyuştirilganligi eslatiladi<sup>3</sup>.

Oraliq masofani taxmin qilgan holda bu guruh Samarqanddan 1386 yilda jo‘nagan, degan xulosaga kelish mumkin. Musulmon manbalarida ham Xitoy bilan munosabatlar haqida ilk ma’lumotlar aynan shu yillarda bo‘lganligi haqidagi ma’lumotlarga duch kelamiz. Masalan, Sharafiddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”sida 1388 yil boshlarida Xitoydan kelgan elchilar haqida eslatib o‘tilgan: “*Nizomiddin Koshg‘ariykim, hazrat (Amir Temur) Eron sori mutavajjih bo‘lg‘onda ani Tabg‘urxonkim, Xitoy podshohi erdi, elchilikka yibarib erdi, keldi va ko‘b tansuq nimalar peshkash qildi va Xitoy ahvolini arz qildi*”<sup>4</sup>.

Ushbu jumlalar mazmunidan elchining Xitoy imperatori tomonidan jo‘natilganligini tushunib olish qiyin emas. Ammo, “Zafarnoma” izohlarida bu voqeaga Temur yuborgan elchilarning qaytib kelishi sifatida baho berilgan<sup>5</sup>. Bu o‘rinda Xitoy hukmdorining nomi

<sup>2</sup> Грусс Р. Империя степей. Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х.Хамраева. – Алматы, 2006. – С.502. <sup>3</sup> Ртвеладзэ Э.В. Китайские посольства ко двору Амира Темура и Темуридов // Общественные науки в Узбекистане, № 7-10. – Т.: Издательство “Фан” Академии Наук Республики Узбекистан, 1996. – С.55.

<sup>3</sup> Извлечения из "Мин ши сань. Сиюй И" (Пер. и прим. К.Ш. Хафизовой) // Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С.45.

<sup>4</sup> Йаздий Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул муҳаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гурӯҳи: И.Шоғуломов ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.118.

<sup>5</sup> Ўша китоб. – Б.334, 555 изоҳ.

“Tabg‘urxon” (“Tabg‘achxon” – “Xitoy xoni”ning buzib talaffuz qilinishi, ehtimol) tarzida yozilishidan hali ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda hech qanday keskinlik yuzaga kelmaganligini aniqlash mumkin. Chunki, ba’zi keyingi o‘rinlarda Xitoy imperatori nomi “To‘ng‘uzxon” deb haqoratli tarzda yoziladi<sup>6</sup>.

Amir Temur tomonidan Xitoya keyingi yillarda bir necha marotaba elchilar jo‘natilganligi tarixiy adabiyotlarda qayta-qayta ta’kidlanadi. Min sulolasiga oid manbalaridan sanaluvchi “Min shi lu” (“Min sulolasining haqiqiy tarixi”) kitobida 1389-1398 yillarda Xitoya Amir Temur saltanatidan to‘qqiz marta elchi kelganligi qayd etilgan<sup>7</sup>.

Min sulolasiga manbalarida tilga olingan Amir Temur elchilar quyidagilar: 1387 va 1389 yillarda ikki marotaba Manla Xafeyszysi (Mulla Hofiz), 1388 yilda Tachjudin (Toj ad-Din), 1391 yilda Shaxali (Shoxalil), 1392 yilda Nimaopudin (Nig‘mat ad-Din), 1394 va 1395 yillarda ikki marta Daeryueshi (Darvesh) hamda 1396 yilda Alamadan (Alomat ad-Din) boshchiligidagi elchilar guruhi Amir Temur nomidan Xitoy imperatori qabulida bo‘lganlar<sup>8</sup>. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, Xitoy manbalarida eslatilgan elchiliklar aslida savdo karvonlari bo‘lishi ham mumkin. Xitoy tarixshunosligida mualliflar tomonidan imperator huzuriga tashrif buyurgan savdo karvonlarini elchiliklar sifatida, har qanday elchilarning (albatta, savdogarlarning ham) hukmdorga tortiq qilgan tuhfalarini esa qaram yurtlardan jo‘natilgan o‘lpon sifatida e’tirof etilishi odatiy holdir.

Masalan, elchi Mulla Hofiz Min imperatori oldida “Men Samaerxan (Samarqand)dan (itoatli) qulingiz, Xafeyszysi...” tarzida o‘zini tanishtirishi “tobelik” izhor etilishidan boshqa narsa emasdek tuyuladi. O‘scha manbada imperatorga otlar yoki bir necha yuz dona qilichlar taqdim etgan “elchilar”ning buning evaziga ipak, choy, turli gazlamalar va oltin buyumlar so‘rashlari ularning aslida hukmdor saroyiga tijorat maqsadida kelgan savdogarlar ekanligidan dalolat beradi<sup>9</sup>.

Amir Temur tarixi yoritilgan musulmon tarixiy manbalaridan birortasida ham Xitoya jo‘natilgan hech bir rasmiy elchilik haqidagi ma’lumotlar tilga olinmagan.

<sup>6</sup> Ўша китоб. – Б.225. Яна қаранг: Шомий Низомиддин. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.278.

<sup>7</sup> Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул муҳаррир: Ҳ.Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Сайдкосимов (рахбар), А.Ахмедов, Б.Ахмедов ва бошк. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.121.

<sup>8</sup> Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар / Аблат Хўжаев. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.199.

<sup>9</sup> Доклады императорам дайчинской династии из иноземных и даннических стран. Б/М. Б/Г. (Пер. и прим. А.П. Колганова) // Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С.24-27.

Ammo, Shohrux (1405-1447 yy) hukmronligi davrida Xitoya yuborilgan G'iyosiddan Naqqoshning sayohat kundaligi haqida qimmatli tarixiy ma'lumotlar mavjud<sup>10</sup>.

Biz yuqorida tilga olingan elchiliklarning Amir Temurga umuman aloqasi yo'q, degan fikrdan yiroqmiz. Bu savdo missiyalarining Xitoydagi siyosi, ijtimoiy ahvolni o'rganish uchun, ya'ni razvedka maqsadlari ko'zda tutilib, Amir Temur tomonidan jo'natilganligi ehtimoli yuqori.

Ammo, markaziy osiyolik ba'zi savdogarlar Xitoya temuriylar saroyi nomidan qalbaki hujjatlar vositasida tijorat ishlarini yuritgan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun, Xitoy yilnomalarida tilga olingan elchilarning barchasini ham rasmiy elchilar sifatida e'tirof etish, bizning fikrimizcha, haqiqatdan birmuncha yiroq deb xulosa qilish ham mumkin.

Chunki, Xitoy tarixiga oid adabiyotlarda soxta "elchilar"ning ham bo'lganligi keltirib o'tilgan.

Sababi, elchilar imperatordan alohida sovg'alar olar va savdo imtiyozlarini ham qo'lga kiritardilar<sup>11</sup>.

O'zbek davlatchiligi taraqqiyotining eng yirik va munozaralarga boy davrini tashkil yetuvchi Amir Temur va temuriylar davri tarixini yoritishni ko'plab tarixchilar o'zlar uchun katta tadqiqot maydoni deb hisoblab kelganlar va bu qarash hozirgi kunda ham o'z kuchini yo'qotmagan. Amir Temur va temuriylar davri tarixshunosligi va manbashunosligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu davrni yoritishga dunyoning ko'plab xalqlari tarixchilari o'z qarashlari va mafkurasi bilan yondashganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Ushbu tadqiqot maydonida o'zbek, turk, fors, rus, fransuz, ingliz, ispan, nemis va boshqa xalqlarga mansub tarixchilarning qarashlari ma'lumotlari to'qnash kelganligini biz adabiyotlarda guvohi bo'lganmiz<sup>12</sup>.

XVI – XIX asrlar oralig'ida Yevropa olimlari va tarixchilarining Amir Temur va temuriylar tarixi bilan qiziqishi bir qancha qimmatli manbalarni dunyo yuzini ko'rishiga sabab bo'ldi.

Ingliz tarixchilarining bu davr tarixi bilan bog'liq tadqiqotlari fransuz va rus olimlarining asarlaridan ko'p bo'lmasada, biroq ushbu tadqiqot maydonida o'ziga xos o'ringa ega. Shulardan biri ingliz tadqiqotchisi Uilyam Chambers muallifligidagi "Xitoy imperatori va Amir Temur o'g'li Sulton Shohrux o'rtaida o'tgan elchixonalar va maktublar hisobi" nashridir. Ushbu maqola 1792

<sup>10</sup> Самарқандий Абдураззок. Матлаи сайдайн ва мажмаи баҳрайн. Ж.II, К.1: 1405-1429 йил воқеалари. / А.Самарқандий; Маъсул муҳаррирлар: А.Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: Ўзбекистон, 2008. — Б.421-452.

<sup>11</sup> Извлечения из "Мин ши сань. Сиюй И" (Пер. и прим. К.Ш. Хафизовой) // Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С.54.

<sup>12</sup> Shog'ulomov I. va b. Amir Temur jahon tarixida. – Т.: "Sharq", 1996 – В. 137

yilda Londonda nashr etilgan “Osiyoning san’ati, ilm-fani va adabiyoti – tarix va o’tmishga oid tadqiqotlar hamda asarlarda” deb nomlangan to‘plamdan o‘rin olgan<sup>13</sup>.

Ushbu mavzuda so‘z yuritishdan avval asar muallifi Uilyam Chambers haqida qisqacha ma’lumot berib o‘tsak. Uilyam Chambers 1723-yil 23-fevralda Shvesiyaning Gyoteborg shahrida Shotlandiya savdogari oilasida tug‘ilgan. 1740-1749 yillarda u Shvesiyaning Sharqiy Hindiston kompaniyasida Xitoyga uch marta sayohat qilgan va u yerda Xitoy me’morchilik va bezaklarini o‘rgangan.

Yevropaga qaytib, Parijda arxitektura bo‘yicha tahsil oldi va Italiyada besh yil yashadi.

1755 yilda Londonga ko‘chib o‘tdi va u yerda arxitektura amaliyotini yo‘lga qo‘ydi. 1757 yilda Uels shahzdasiga, keyinchalik Jorj III ga me’morchilik bo‘yicha o‘qituvchi etib tayinlandi.

U mamlakatda ko‘plab uylar va hashamatli saroylar qurilishiga boshchilik qilgan va Xitoyda bog‘dorchiligining naturalistik uslubi haqidagi zamonaviy ingliz g‘oyalarini hayoliy tarzda ishlab chiqqan “Sharq bog‘dorchiligi bo‘yicha dissertatsiya”si (1772) bilan Xitoyga oid qiziqishlarini yanada rivojlantirdi. Uilyam Chambers qirollik akademiyasi tashkil etilishida juda katta xizmat qilgan. U 1796 yilda Londonda vafot yetgan.

Demak, Uilyam Chambers Xitoyda xizmatda bo‘lgan davrida Xitoy bog‘dorchiligi, me’morchilik, san’ati va tarixi bilan ham qiziqib, uni o‘rganishga harakat qilgani ehtimoldan xoli emas. Shu nuqtai nazardan Min imperiyasining qo‘shni mamlakatlar, xususan O‘rta Osiyodagi temuriylar davlati bilan olib borgan elchilik aloqalari va maktublar almashinushi muallif qiziqishlarini yanada boyitgan bo‘lishi mumkin. Xo‘s, muallif voqealar mazmunini qanday bayon etgan, shu haqida quyida batafsil to‘xtalamiz.

Asarning yozilish tarixi haqida U.Chambers quyidagi fikrlarni bildirib o‘tgan: “Keyingi parchalar Yevropada umuman noma’lum bo‘lgan asardan tayyorlangan. Mr. D’erbelot bu haqda “Shaxrox” maqolasida aloxida to‘xtalib o‘tadi va uni bir kun kelib Mr. Galland tomonidan tarjima qilinganida ko‘rishga umid bildiradi; lekin bunday tarjima hech qachon paydo bo‘lmagan<sup>14</sup>.

Demak mavzuni yoritishdan avval muallif tilga olgan (Mr.D’erbelot va Mr.Galland) shaxslar haqida to‘xtalib o‘tish ma’lumotlarga oydinlik kiritishida imkon beradi, deb hisoblasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

<sup>13</sup> Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792.

<sup>14</sup> Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792. – P.357.

Bartelemiy D'erbelot de Molainville (1625-1695) fransuz sharqshunosi, Parij universitetida tahlil olib sharq tillarini o'rgangan. Italiyaga borib dengiz portlariga tez-tez kelib turadigan sharqliklar bilan suhbatlashgan va arab, fors, turk tillarini o'rgangan. Uning buyuk asari "Biblioteue orientale..." ("Sharq kutubxonasi") deb nomlangan va butun umri davomida to'plangan. Lekin bu asar 1697-yilda Antuan Galland tomonidan yakunlangan va Usmoniyalar davri olimi Hoja Xalifa (Kotib Chalabiy) ning arab bibliografiyasi hamda boshqa arab va turkiy to'plamlarga assoslanib tuzilgan<sup>15</sup>.

Antuan Galland – fransuz sharqshunosi va arxeologi. 1646-1715 yillarda yashagan va "Ming bir kecha" asarini birinchi bo'lib tarjima qilgan yevropalik tarjimon sifatida tanilgan. U Parijda yunon, lotin va arab tillarini o'rgangan va keyinchalik Istanbuldagi Fransiya elchixonasida ishlagan. Xizmati davomida Suriya va arab mamlakatlariga sayohat qilib arab, fors va turk tillarini puxta o'rgangan.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, Bartelemiy D'erbelot vafot etgach, uning asarini davom ettirgan va bu ishi Yevropaning Yaqin Sharq haqidagi ma'lumotlariga katta hissa bo'lib qo'shilgan.

Shulardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, U.Chambers Sharq mamlakatlari, xususan temuriylar davriga oid bo'lgan bu ma'lumotlarni yozishda yuqoridagi ikki olimning hissasini alohida ta'kidlab o'tgan.

Muallif o'z maqlasini Abdurazzoq Samarqandiyning "Matlai sa'dain va majmai bahrain" asari orqali tarjima qilib yoritgan. Chunki bu haqida o'zi maqolaning sarlavhasini quyidagicha nomlagan: "Xitoy imperatori va AMIR TIMUR o'g'li Sulton Shoxrux o'rtasida o'tgan elchixonalar va maktublar hisobi ABDUR RIZAKning "Matla us sadein" asaridan olindi va Uilyam ChAMBERS tomonidan tarjima qilindi"<sup>16</sup>.

Asarda Abdurazzoq Samarqandiyning hayoti va faoliyatiga oid ma'lumotlar yoritilishi bilan birga, Shohrux vafotidan keyin Abdurazzoq Samarqandiy Mirzo Abdullatif, Mirzo Abdullo, Mirzo Abulqosim Boburlarning xizmatiga olinganligi haqidagi muhim ma'lumotlarga yozib qoldirgan<sup>17</sup>.

<sup>15</sup> Laurens, Genri. "Sharqshunoslikning yordamchi manbalari: la Bibliothèque Orientale de Barthélémi d'Herbelot". nashrlar du departement d'Islamologie de l'Université de ParisSorbonne (Parij IV), 6., Parij: GP. Larose, 1978.: – P.102

<sup>16</sup> Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792. – P.357.

<sup>17</sup> Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792. – P.358.

Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, U.Chambers Abdurazzoq Samarqandiy bergen ma'lumotlarni uning zamondoshi Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asari ham tasdiqlaydi, deb ma'lumot qoldirganligi muallifning voqealarni yoritishga ancha chuqur yondashganligidan dalolat beradi.

Lekin muallifning yuqoridagi fikri biroz mulohaza talabdir. Chunki Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnomasi"da Shohrux mirzo davrida Xitoy bilan olib borilgan diplomatik munosabatlar tarixi yoritilmagan.

To‘g‘ri o‘z vaqtida Abdurazzoq Samarqandiy bilan Sharafiddin Ali Yazdiylar uchrashgan.

Bu haqida tadqiqotchi olim A.O‘rinboyev Abdurazzoq Samarqandiy haqida bergen ma'lumotlarida: "Bu yili Abulqosim Bobur Fors va Iroq tomon lashkar tortgan edi, Abdurazzoq ham safarga chiqib Eronning bir qancha shaharlarda bo‘ladi va lashkar Hirota qaytayotganida, 1452 yil avgust oyida Tafti Yazdda "Zafarnoma" asarining muallifi, mashhur tarixnavis Sharafiddin Ali Yazdiy bilan uchrashadi va uning suhbatida bo‘ladi"<sup>18</sup> deb yozgan edi.

Lekin bu suhbat temuriylar davlatining Xitoy bilan munosabatlari borasidagi Abdurazzoq Samarqandiy tomonidan bildirilgan fikrlarni Sharafiddin Ali Yazdiy tomonidan tasdiqlanishini bildirmaydi. Bizningcha, U.Chambers Abdurazzoq Samarqandiy fikrlarini Sharafiddin Ali Yazdiy ham tasdiqlaydi deganida, Amir Temur davrida Xitoy bilan olib borilgan munosabatlarni nazarda tutgan.

Chunki Abdurazzoq Samarqandiy o‘zining "Matlai sa'dayin" asarining birinchi jildida Amir Temur tarixini yozgan edi.

U.Chambers Xitoy imператори bilan Shohrux o‘rtasidagi dastlabki elchilik 1408 yilda Xitoydan imperatorning Amir Temur vafoti munosabati bilan hamdardlik bildirish uchun turli sovg‘alar bilan elchilar Hirota kelganligi xususida yozib qoldirgan. Bu ma'lumot "Matlai sa'dain"da quyidagicha bayon etilgan: "Bu debochadan maqsad va bu o‘gitdan matlab shuki, humoyun mavkab Seiston yurishidan qaytib kelganidan keyin, Xitoy podshohining sohibqiron hazratlari (vafoti) tufayli ta’ziya bildiirish uchun yuborilgan elchilari sovg‘a-salomlar bilan yetib keldilar hamda o‘z podshohlari so‘zini arzga yetkazdilar" [8]<sup>19</sup>.

<sup>18</sup> Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / А. Самарқандий; Маъсул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: "O‘zbekiston", 2008. 18-bet.

<sup>19</sup> Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / А. Самарқандий; Маъсул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: "O‘zbekiston", 2008. 145-bet.

Bu elchilar bilan birga Shohrux ham o‘z elchilarini Xitoya jo‘natgan va bunga javoban 1412 yilda yana Xitoy imperatorining elchilari Samarqandga tashrif buyurgan. Bu elchilar orqali imperator Shoxrux saroyiga 3 tilda – fors, mo‘g‘ul belgisi bilan turkiy hamda xitoy tillarida bitilgan maktublarni jo‘natgan edi. U.Chambers asarida ham bu voqeа huddi shunday berib o‘tilgan. Ma’lumotlarga umumiylar qaraladigan bo‘lsa, muallif o‘z asarida Xitoydan Sulton Shohrux huzuriga jami 4 marta – 1408, 1412, 1417 va 1419-yillarda elchilar kelganini qayd etgan.

Bu ma’lumotlarning barchasini U.Chambers yuqorida aytib o‘tganidek Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dain” asaridagi ma’lumotlarni tarjima qilish orqali to‘plashga va yoritishga muvaffaq bo‘lgan. Yana shuni alohida ta’kidlash lozimki, to‘plangan barcha ma’lumotlar Bartolemiy D’erbelotning “Shaxrox” maqolasidagi ma’lumotlar bilan boyitilib mukammal darajaga keltirilganligi o’sha davr tадqiqotchilar e’tiboriga tushgan va 1792 yildagi ushbu to‘plamdan o‘rin olgan bo‘lishi mumkin.

U.Chambers Abdurazzoq Samarqandiyning “Matlai sa’dain” asari bilan qanday tanishgan yoki bu asar va undagi ikki yirik hukmdor o‘rtasidagi elchilik maktublari uning qo‘liga qanday tushib qolgan? Bu haqda muallif hech qanday ma’lumot qoldirmagan bo‘lsada, o’sha davr siyosiy-madaniy shartsharoitlaridan kelib chiqib, asarda berilgan voqeа-hodisalar haqida fikr yuritishimiz yoki taxmin qilishimiz mumkin.

Hozirda ma’lum bo‘lishicha, dunyodagi Sharq qo‘lyozmalari saqlanayotgan yirik kutubxonalarning deyarli har birida “Matlai sa’dayn”ning bir yoki bir necha nusxasi uchraydi. Sharq qo‘lyozmalari kataloglaridan ma’lum bo‘lishicha, asarning ikkinchi jildi qo‘lyozmalaridan 20 dan ortig‘i dunyo kutubxonalarida mavjuddir. Abdurazzoq Samarqandiyning temuriylar davlati elchisi sifatida 1442-1444 yillarda Hirotdan Janubiy Hindistonga safar qilganligini bilamiz.

Bu asarning nusxasi Hindistonga muallifning o‘zi bilan birga borish mumkin emas. Chunki unda muallif asarni yozib tugallamagan edi. Bizningcha, asarning nusxalari Hindiston kutubxonalarida Boburiylar davriga kelib paydo bo‘lgan va U.Chambers qirol xonodoniga yaqin bo‘lgan davrlarda (U.Chambers Uels shahzodasi va Angliya qiroli Georg III ga me’morchilik bo‘yicha ustozlik qilgan) Londongacha yetib borgan Sharq qo‘lyozmalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘lgan bo‘lishi mumkin.

Xulosa tarzida shuni aytish mumkinki, G‘arb olimlarining, xususan ingliz tadqiqotchilarining Sharq mamlakatlariga qiziqishi boshqa hududlarga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan. Jumladan Sharqning ikki buyuk davlati Temuriylar va Xitoy tarixi bilan bog‘liq siyosiy-

madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni o‘rganish va tahlil qilish orqali G‘arb davlatlari bu davlatlarning ko‘plab sohalarda erishgan yutuqlarini o‘zlashtirishga muvaffaq bo‘lganlar.

Shu o‘rinda aytish lozimki, XVI – XIX asrlarda inglizlarning mustamlakachilik siyosati bilan birga o‘zlari yetib borgan mamlakatlar madaniy hayotini har tomonlama chuqur o‘rganishga bo‘lgan intilishlari ortidan yaratilgan va bizga noma’lum bo‘lgan bir qancha asarlar ingliz fondlarida saqlanayotgandir. Bu holat bugungi o‘zbek tadqiqotchilar oldidagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu fondlarni imkon darajasida keng o‘rganib, tahlil qilish Amir Temur va temuriylar tarixiga oid yangi qirralarni yuzaga chiqarishi shubhasiz.

## REFERENCES

1. Rajkai Z.T. The Timurid empire and the Ming China: Theories and approaches concerning the relations of the two empires (Doktori Disszertáció). – Budapest, 2007. – P.50.
2. Груссэ Р. Империя степей. Аттила, Чингиз-хан, Тамерлан. Перевод Х.Хамраева. – Алматы, 2006. – С.502. З Ртвеладзэ Э.В. Китайские посольства ко двору Амира Темура и Темуридов // Общественные науки в Узбекистане, № 7-10. – Т.: Издательство “Фан” Академии Наук Республики Узбекистан, 1996. – С.55.
3. Извлечения из "Мин ши сань. Сиюй И" (Пер. и прим. К.Ш. Хафизовой) // Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С.45.
4. Йаздий Шарафуддин Али. Зафарнома // Сўзбоши, табдил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Ҳ.Бобобеков; Масъул мухаррир Б.Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гурухи: И.Шоғуломов ва бошқалар. – Т.: Шарқ, 1997. – Б.118.
5. Ўша китоб. – Б.334, 555 изоҳ.
6. Ўша китоб. – Б.225. Яна қарант: Шомий Низомиддин. Зафарнома. – Т.: Ўзбекистон, 1996. – Б.278.
7. Амир Темур жаҳон тарихида / Масъул мухаррир: Ҳ.Кароматов. Муаллифлар жамоаси: С.Сайдқосимов (раҳбар), А.Аҳмедов, Б.Аҳмедов ва бошқ. Тўлдирилган ва қайта ишланган иккинчи нашри. – Т.: Шарқ, 2001. – Б.121.
8. Хўжаев А. Буюк ипак йўли: муносабатлар ва тақдирлар / Аблат Хўжаев. – Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2007. – Б.199.

9. Доклады императорам дайцинской династии из иноземных и даннических стран. Б/М. Б/Г. (Пер. и прим. А.П. Колганова) // Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С.24-27.
10. Самарқандий Абдураззоқ. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн. Ж.И, Қ.1: 1405-1429 йил воқеалари. / А.Самарқандий; Масъул муҳаррирлар: А.Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: Ўзбекистон, 2008. — Б.421-452.
11. Извлечения из "Мин ши сань. Сиуюй И" (Пер. и прим. К.Ш. Хафизовой) // Китайские документы и материалы по истории Восточного Туркестана, Средней Азии и Казахстана XIV-XIX вв. – Алматы: Гылым, 1994. – С.54.
12. Shog'ulomov I. va b. Amir Temur jahon tarixida. – Т.: “Sharq”, 1996 – Б. 137
13. Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792.
14. Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792. – P.357.
15. Laurens, Genri. “Sharqshunoslikning yordamchi manbalari: la Bibliothèque Orientale de Barthélemy d'Herbelot”. nashrlar du departement d'Islamologie de l'Université de ParisSorbonne (Parij IV), 6., Parij: GP. Larose, 1978.: – P.102
16. Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792. – P.357.
17. Sir W.Jones, W.Chambers, ESQ. C. Wilkins, ESQ. &c. London. Printed for G.Nicol, Bookseller to his majesty, Pall-Mall; J.Walter, Charing-Cross; and J.Sewell, Cornhill. M DCC XCII. 1792. – P.358.
18. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / А. Самарқандий; Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: “O‘zbekiston”, 2008. 18-bet.

19. Матлаи саъдайн ва мажмаи баҳрайн / А. Самарқандий; Масъул муҳаррирлар: А. Қаюмов, Муҳаммад Али; Ўзбекистон Республикаси ФА, Абу Райхон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Т.: “O‘zbekiston”, 2008. 145-bet.